



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

● www.xs.uz ● E-mail: info@xs.uz ●

2026-yil 13-may, № 96 (9267)

Chorshanba

Saytimgiza o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



BRAZILIYA BILAN KO'P QIRRALI SHERIKLIK KENGAYTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-may kuni tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Braziliya Federativ Respublikasi tashqi ishlar vaziri Mauro Viyeyrani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Braziliya Prezidenti Luis Inasiu Lula da Silvaning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston – Braziliya munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish masalalari muhokama qilindi.

Oliy darajada tizimli muloqotni yo'lga qo'yish, siyosiy va parlamentlararo aloqalarni faollashtirish muhimligi qayd etildi.

O'zaro savdo hajmini oshirish, ishbarmonlik aloqalarini rivojlantirish, kimyo, elektrotexnika, farmatsevtika va sanoatning boshqa tarmoqlarida qo'shma loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Qishloq xo'jaligi, seleksiya, turizm, sport va boshqa yo'nalishlardagi hamkorlik istiqbollari kun tartibida bo'ldi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun Hukumatlararo komissiya tuzish taklif etildi.

Tomonlar xalqaro darajadagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo'lajak tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

29-YEVROOSIYO IQTISODIY SAMMITI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Yevroosiyo iqtisodiy sammitining barcha ishtirokchilarini samimiy qutlash va eng ezgu tilaklarimni yo'llashdan bag'oyat mamnunman.

O'tgan o'n yillar davomida Sammit yetakchi siyosatchilar, ishbarmon doiralari va ekspertlar hamjamiyati vakillarini birlashtirgan muhim muloqot maydoni sifatida o'zini namoyon etdi.

Anjumanning Istanbulda o'tkazilishi alohida ramziy ma'noga ega. Asrlar davomida bu betakror shahar Yevropa va Osiyo o'rtasida ko'prik bo'lib, mintaqalararo madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi.

Bugungi kunda zamonaviy Turkiyada Prezident Rejep Tayyip Erdog'anning "Turkiya asri" strategik g'oyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlashni istar edim.

Turkiya global kun tartibidagi dolzarb muammolarni samarali hal etish yo'lida o'z sa'y-harakatlarini to'liq safarbar etib, xalqaro munosabatlarning ishonchli va

nufuzli ishtirokchisi sifatida ta'siri ortib bormoqda.

Prezident Erdog'anning qat'iy intilishlari tufayli bugun O'zbekiston va Turkiya munosabatlari keng ko'lami strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi.

Davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning eng ustuvor yo'nalishlari Yevroosiyo iqtisodiy sammitining asosiy maqsadlari – teng huquqlilik, ishonch va o'zaro hurmatga asoslangan keng qamrovli sheriklik va barqaror taraqqiyot tamoyillariga to'la mos keladi.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Bu galgi Sammitning asosiy mavzularidan biri sifatida suv tanqisligi va "yashil" resurslar sharoitida global mas'uliyat masalasi bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo tobora avj olayotgan iqlim xavf-xatarlariga, xususan, cho'llanish, tuproq yemirilishi, suv tanqisligi va ekologik vaziyat yomonlashuviga duch kelmoqda.

Markaziy Osiyoda ushbu jarayonlar ayniqsa keskin namoyon bo'lyapti: harorat oshish sur'atlari ko'rsatkichi jahon miqyosidagi o'tacha me'yorlardan yuqori

bo'lib, muzliklar yemirilmoqda, tuproq degradatsiyasi kuchaymoqda.

Bunday sharoitda ekologik barqarorlikni ta'minlash Yangi O'zbekistonni taraqqiy ettirishning eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

"Yashil makon" loyihasi doirasida har yili 200 million tup daraxt ekilmoqda, Orol dengizining qurigan tubida esa ulkan yashil himoya maydonlari yaratilmoqda.

Biz rivojlanishning yashil modeliga izchillik bilan o'tmoqdamiz, bu jarayonda zararli chiqindilar hajmini 35 foizga qisqartirib, 2035-yilga qadar ularni 50 foizgacha kamaytirishni maqsad qilib olganmiz.

Shu bilan birga, suv resurslarini samarali boshqarish, jumladan, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa har yili katta miqdorda suv zaxiralarini tejash imkonini beradi.

O'zbekiston bundan buyon ham "yashil" kun tartibini faol ilgari surish hamda global ekologik xavflarni samarali hal etish yo'llarini topishga hissa qo'shishni faol davom ettiradi.

Shu munosabat bilan sizlarni

mamlakatimizdagi xalqaro tadbirlarda, xususan, Samarqandda bo'lib o'tadigan Global ekologik jamg'arma Assambleyasida va Suvni tejash bo'yicha butunjahon forumida ishtirok etishga taklif etaman.

Ishonchim komil, birgalikda amalga oshiriladigan sa'y-harakatlarimiz xalqaro iqlim hamkorligi kun tartibiga, jumladan, BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha bo'lajak konferensiyasiga tayyorgarlik jarayoniga amaliy hissa qo'shadi.

Qadrli tadbir ishtirokchilari!

O'zbekiston keng ko'lami hamkorlik uchun doim ochiq va kelgusida ham barqaror rivojlanishni ta'minlashga ko'maklashishga tayyor.

Biz barcha sa'y-harakatlarimizni birlashtirgan holdagina bugungi va kelgusi avlodlar uchun farovon kelajakni ta'minlay olamiz.

Sammit qatnashchilari faoliyatiga omad va katta amaliy natijalar yor bo'lishini tilayman.

E'tiboringiz uchun tashakkur.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

DAVLAT XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH — ENG TO'G'RI YO'L

Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida byurokrtiyani qisqartirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Songgi yillarda mamlakatimizda davlat xizmatlarini aholi va tadbirkorlar uchun qulay, tezkor va shaffof qilish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Davlat xizmatlari ko'lami 10 barobar ko'payib, 61 milliondan oshdi. Ularning 80 foizi onlayn shaklda ko'rsatilmoqda. 2025-yilning o'zida tadbirkorlikka oid 2 mingdan ortiq majburiy talablar bekor qilindi.

Shu bilan birga, sohada ortiqcha tartib-taomillar, qog'ozbozlik va takrorlanuvchi talablar hali ham saqlanib qolmoqda. Bugungi kunda davlat organlarida 5 650 ta funktsiya, biznesni tartibga soluvchi 42 mingdan ziyod majburiy talablar va 1 041 ta davlat xizmati mavjud.

– Bunday ko'p funktsiya va talablar tizimni samarasiz, qimmat va ba'zan adolatsiz qilib qo'yishi mumkin. Shu bois faqat deregulyatsiya, raqamlashtirish va soddalashtirish – eng to'g'ri yo'l, – dedi davlatimiz rahbari.



OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA CHORVACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Prezident Shavkat Mirziyoyev oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish hamda chorvachilik sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat ta'minotini barqarorlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda 4 million gektar ekin maydoni, 1,5 million tonna sig'imga ega saqlash omborlari va 3,5 million tonna mahsulotni qayta ishlash quvvatlari aholini arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shuningdek, 4 milliard dollarlik mahsulot eksport qilish imkonini bermoqda.

O'zbekiston 2030-yilga qadar oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 10 milliard dollarga yetkazish, eksport geografiyasini

yanada 100 ta davlatga kengaytirishni maqsad qilgan.

Yig'ilishda ushbu marallarga erishish uchun oziq-ovqat xavfsizligi tizimi xalqaro standartlarga to'liq mos bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Hozirga qadar oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va nazorati bilan uchta idora shug'ullanib kelmoqda. Oqibatda sanitariya, veterinariya va karantin organlari o'rtasida yagona ma'lumotlar bazasi shakllanmagan, ayrim vazifa va funksiyalar bir-birini takrorlayapti. Bu esa tadbirkorlarning eksport va import jarayonlarida ortiqcha ovoragarchilikka duch kelishiga sabab bo'layotir.



Muloqot

INNOVATSION TA'LIM LOYIHALARI AMALIYOTDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Buxoro davlat texnika universitetida faoliyat yuritayotgan Xotin-qizlar, yoshlar uchun IT va muhandislik inklyuziv ta'lim markazining faoliyati, unda yaratilgan zamonaviy sharoitlar hamda amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar bilan yaqindan tanishdi.

Inklyuziv ta'lim, sun'iy intellekt, startap ekotizimi va raqamli texnologiyalar yo'nalishidagi ishlar harqatda batafsil ma'lumotlar berildi. Markazda xotin-qizlar, yoshlar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan zamonaviy IT infratuzilmasi yuqori baholandi. Ayniqsa, talabalar tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellektga asoslangan dasturiy yechimlar va startap loyihalar tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Talabalar tomonidan 10 dan ortiq innovatsion platformalar, jumladan, "VoiceUP" ovoqli boshqaruv tizimi, "Raqamli maktab" ta'lim platformasi, "Safar Line" turizm yechimi hamda "LoadBoard" logistika platformasi taqdimoti o'tkazildi.

Tanishuv jarayonida talabalar bandligini monitoring qilish tizimi, elektron kutubxona hamda talabalar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan raqamli monitoring dasturlari ham namoyish etildi. Shuningdek, robototexnika va IT integratsiyasi, "VR" hamda "3D" modellashtrish, media ishlab chiqarish hamda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish yo'nalishidagi laboratoriyalar faoliyati bilan ham yaqindan tanishildi.

Senat Raisi yosh innovatorlar va startap jamoalar bilan ochiq muloqot o'tkazib, ularning ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda amaliyotga joriy etish haqidagi takliflarini tingladi.

"Xalq so'zi".

XALQARO MIQYOSDA E'TIROF ETILAYOTGAN ISHLAR

Prezidentimizning 29-Yevroosiyo iqtisodiy sammiti ishtirokchilariga yo'llangan murojaati bugungi murakkab global sharoitda O'zbekistonning ochiq, konstruktiv va uzoqni ko'zlagan tashqi siyosati namoyoni sifatida alohida ahamiyatga ega.

Munosabat

Murojaatda Yevroosiyo makonidagi iqtisodiy hamkorlik, o'zaro ishonch va barqaror taraqqiyot masalalari chuqur tahlil qilingan. Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston hamda Turkiya munosabatlari keng ko'lami strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgani ta'kidlangani ham muhim siyosiy signaldir.

Keyingi yillarda ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy,

investitsion va madaniy aloqalar mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Bu esa mintaqa barqarorligi va taraqqiyoti uchun ham muhim omil hisoblanadi. Menimcha, murojaatning eng dolzarb qismi ekologik xavfsizlik va "yashil taraqqiyot" masalalariga bag'ishlanganidir. Bugun iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi va atrof-muhit bilan bog'liq muammolar jahon iqtisodiyoti hamda xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.



"Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasi:

NAVQIRON AVLOD ORZU-MAQSADLARINI RO'YOBGA CHIQARUVCHI DASTURILAMAL HUIJAT

Keyingi yillarda O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash oddiy ijtimoiy siyosat yo'nalishidan strategik taraqqiyot modeliga aylandi. Ular uchun ta'lim, kitobxonlik, kasb-hunar, sport, madaniyat, bandlik, tadbirkorlik sohalarida aniq mexanizmga ega tizimli dasturlar ishlatilmoqda.

Mushohada

Mahalla instituti orqali sohada vertikal boshqaruv tizimi yaratilgani, barcha darajadagi davlat idoralari, rahbarlarning yoshlar bilan ishlashda

mas'uliyati oshirilgani natijalar asosidir.

Aholining 9,5 million nafarini 14 – 30 yoshdagi yigit-qizlar tashkil etishini, har yili 270 mingta yosh oila shakllanayotganini hisobga olsak,

demografik omil yoshlar siyosatiga uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab etmoqda. Misol uchun, har yili yuz minglab o'quvchilar maktabni tamomlab, mehnat bozoriga kirib bormoqda. Bu o'sish mavjud tizimni doimiy bosim ostida ushlab turadi. Ta'lim tizimi bunga moslashmasa, ish o'rinlari yetarli tezlikda yaratilmasa, bosim ichki muammolarga aylanadi. Ya'ni yoshlar sonining ko'pligi ham imkoniyat, ham mas'uliyat. Bu omilni

to'g'ri yo'naldirish esa tizimli qarorlarni talab qiladi.

Real vaziyatdan kelib chiqib mamlakatimiz tarixida birinchi bor Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlarning o'рни va salohiyatini yanada to'liq ro'yobga chiqarishga qaratilgan keng ko'lami dastur – "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Prezidentimizning joriy yil 20-apreldagi farmoniga muvofiq tasdiqlangan

ushbu hujjat yoshlar bilan ishlashning ustuvor yo'nalishlarini bir joyga jamladi, ularning o'zaro bog'liqligi aniq belgilandi hamda natijaga olib boruvchi mexanizmlar tizimli shaklga keltirildi.

Ham tashabbus, ham tizim ishlaydi

Bugungacha yurtimizda yoshlarning o'z imkoniyatini ko'rsata olishi uchun qulay muhit yaratildi, desak, ayni haqiqat. Shu sabab endigi hujjatda asosiy e'tibor yangi tashabbuslar soniga emas, mavjud mexanizmlarning qanday ishlashiga qaratilgan. Qancha loyiha borligi emas, ular bir-birini qanday to'ldirishi muhim bo'lib qolaypti.



PARLAMENT FAOLIYATIDA SHAFFOFLIK: OʻZBEKISTON VA GERMANIYA TAJRIBASI



Soʻnggi yillarda ikki mamlakat oʻrtasidagi munosabatlار sezilarli darajada faollashayotgani, siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik, "yashil" texnologiyalar, taʼlim, professional tayyorgarlik va parlamentlararo aloqalar izchil rivojlanib borayotgani aytiladi. Oʻz navbatida, Germaniya Yevropa Ittifoqi doirasida Oʻzbekistonda Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarni qoʻllab-quvvatlab kelayotgan ishonchli hamkor mamlakatlardan biri ekanini alohida urgʻulandi.

Tadbirda Oʻzbekiston va Germaniya parlamentlari aʼzolari parlament faoliyatini raqamlashtirish, qonun ijodkorligida fuqarolar ishtirokini kengaytirish hamda parlament diplomatiyasini rivojlantirish boʻyicha oʻzaro fikr almashdi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi 9 yilda Oʻzbekiston yuksalishning yangi davrida yashamoqda. Mamlakatimiz parlamenti faoliyati yangicha maʼno-mazmun kasb etmoqda. "Xalq – qonunlarning yagona manbai va muallifi" degan tamoyil milliy parlament faoliyatining bosh mezoniga aylandi. Shaffoqlik, ochiqlik va

raqamlashtirish bugungi islohotlarning ustuvor yoʻnalishi etib belgilandi.

Davra suhbatida raqamli transformatsiya, sunʼiy intellekt texnologiyalari va zamonaviy axborot platformalarini parlament faoliyatiga keng joriy qilish orqali qonunchilik jarayonining samaradorligi, ochiqligi va tezkorligini taʼminlashga oid qator maʼruzalar tinglandi. Shuningdek, bu boʻyicha amaliy takliflar ilgari surildi.

Qonunchilik palatasi Kengashining yaqinda qabul qilingan "Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining faoliyatiga sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi qarorining muhim ahamiyati taʼkidlandi. Bu parlament tahlili, huquqiy ekspertiza va qaror qabul qilish jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga hissa qoʻshishi aytiladi.

Tadbirda ishtirokchilar Oʻzbekiston va Germaniya oʻrtasidagi parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, tajriba almashinuvini davom ettirish hamda parlament diplomatiyasini mustahkamlash boʻyicha fikr-mulohazalarini bildirdi.

Soʻz – ishtirokchilarga

Shuhrat YOQUBOV,
Qonunchilik palatasining Fan, taʼlim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qoʻmitasi aʼzosi:



– Bugungi globalashayotgan tezkor davrda parlamentning oʻrni va masʼuliyati tobora ortib bormoqda. Davra suhbatida germaniyalik hamkasblarimiz bilan birga qonun ijodkorligi, raqamlashtirish jarayoni, "Elektron parlament" tizimi boʻyicha qizgʻin fikr almashdik. Qonunchilik palatasi faoliyati, onlayn translyatsiyalar, elektron hujjat aylanishi va raqamli tahlil mexanizmlari milliy parlamentimiz faoliyatini yangi bosqichga olib chiqayotganini aniq raqamlar orqali koʻrsatdik. Ayniqsa, "Mening fikrim" platformasi va jamoatchilik muhokamalari orqali aholining qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki tobora kengayib borayotgani haqidagi tahlillarimiz ishtirokchilarda qiziqish uygʻotdi. Aytish mumkinki, Germaniya Bundestagining raqamli parlament, kiberxavfsizlik va texnologik boshqaruv sohasidagi tajribasi biz uchun ham muhim boʻlib, bu borada tajribalarimiz bilan oʻrtoqlashdik. Albatta, bu parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yoxannes FOLKMANN,
Germaniya Bundestagi deputati:



– Oʻzbekistonga birinchi marotaba tashrif buyurib, parlament anjumanida qatnashayotganimdan mamnunman. Qator dolzarb masalalarda fikrlashdik. Qayd etish joiz, parlament faoliyatida raqamli yondashuv juda muhim. Raqamlashtirish orqali qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi, shaffoqlik

oshadi va fuqarolar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqa kuchayadi. Bu zamonaviy demokratik institutning asosiy talabidir. Deputat uchun eng muhim afzallik esa maʼlumotga tezkor kirish imkoniyati. Oʻzbekistonda parlament faoliyatiga zamonaviy yondashuvlar tatbiq etilayotgani, albatta, eʼtiborga molik. Ochiq munozaralar, saylovchilar bilan muloqotlar keyingi faoliyat yoʻnalishlarini belgilab olishda, dolzarb qonun loyihalarini qabul qilishda muhim oʻrin tutadi.

Tadbir doirasida parlamentlararo muloqot va oʻzaro tajriba almashinuvi boʻyicha mulohazalarimizni bildirdik. Parlamentlararo hamkorligimiz mamlakatlar oʻrtasidagi ishonch hamda oʻzaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Valisher DAVLYATOV,
Qonunchilik palatasi huzuridagi
Parlament tadqiqotlari instituti
direktorining oʻrinbosari:



– Mazkur tadbir tajriba almashish maydoni boʻldi, deyish mumkin. Parlament transformatsiyasi, sunʼiy intellekt kabi muhim yoʻnalishlarda muloqot qildik.

Taʼkidlash kerak, bugun sunʼiy intellekt texnologiyalari parlament faoliyatida qonun loyihalarini tahlil etish, huquqiy ziddiyatlarni aniqlash, korrupsiyaviy xavflarni baholash, qonunlarning ijtimoiy taʼsirini prognoz qilish, murojaatlarni intellektual saralash, ijtimoiy kayfiyat va munosabatlarni tahlil etish orqali jamoatchilik fikrini oʻrganish imkonini berayotir. Endi parlament faqat hujjatlarni emas, balki jamiyatning real ehtiyojlari, kayfiyati va muammolarini ham tahlil qilyapti. Umuman aytganda, parlamentda raqamlashuv, shaffoqlik, ochiqlik kabi masalalarda oʻzaro tajriba almashinuvi ikki mamlakat parlamentariylari uchun foydali boʻldi.

"Xalq soʻzi".

XALQCHIL QONUN LOYIHALARI MUHOKAMASI

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining navbatdagi yigʻilishlari boʻlib oʻtdi. Ularda Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalarini atroflicha muhokama qilindi.

Fraksiyalar hayoti

Markaziy bank faoliyatining huquqiy asoslari yanada mustahkamlanmoqda

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida dastlab Prezidentimiz huzurida ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini barqarorlashtirish hamda tadbirkorlarni oʻylantirayotgan muammoli masalalarni hal etish yuzasidan oʻtkazilgan taqdimotda ilgari surilgan tashabbuslar haqida soʻz yuritildi.

Deputatlar korxona peshlavhalarini reklama sifatida baholamaslik, ular uchun ortiqcha ruxsat va toʻlovlarni bekor qilish, umumiy ovqatlanish va xizmat koʻrsatish sohaslaridagi tartib-taomillarni soddalashtirishga qaratilgan takliflar tadbirkorlar uchun yengilliklar yaratishini qayd etdi.

Yigʻilishda Markaziy bank faoliyatini yanada takomillashtirish, uning mustaqilligi va bank tizimi barqarorligini taʼminlashga qaratilgan qonun loyihasi qizgʻin muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjat loyihalarini majburiy kelishish hamda kredit tashkilotlari uchun prudensial normativlarni, korporativ boshqaruvni, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir va boshqa talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazish tartibini soddalashtirish taklif etilmoqda.

Muhokamarlar davomida fraksiya aʼzolari partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, loyihadagi ayrim narmalar boʻyicha qonun tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berdi. Xususan, deputat D. Artiqov loyiha bilan Markaziy bank yuridik xizmati ijobiy xulosasi asosida qabul qilingan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni oʻn kun ichida soddalashtirilgan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtkazish belgilanayotgani, lekin bunday qisqa muddat idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning huquqiy tabiatiga qay darajada mos kelishini soʻradi. Shuningdek, davlat roʻyxatidan oʻtkazish muddatining keskin qisqartirilishi huquqiy ekspertiza sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatmaydimi, degan savolni oʻrtaga tashladi.

Muhokamalardan soʻng qonun loyihasi qoʻllab-quvvatlandi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari uchun yangi imkoniyatlar

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida "Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga davlat fuqarolik xizmatlashining kasbiy

malakasini oshirish kafolatlarini belgilashga qaratilgan qoʻshimcha kiritish toʻgʻrisida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Qonun tashabbuskorlari mazkur hujjatning zarurati haqida toʻxtalib, soʻnggi yillarda davlat fuqarolik xizmati tizimining huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslarini belgilash, aholi, ayniqsa, yoshlarning mazkur xizmatga qiziqishini kuchaytirish, raqobatli mehnat bozorida jozibadorlikni oshirishga qaratilgan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilayotganini taʼkidladi.

Amaldagi qonunchilikda davlat



fuqarolik xizmatchisi xorijiy taʼlim muassasalarida oʻqish uchun grant yutgan taqdirda, uning ish joyi va lavozimini saqlash boʻyicha huquqiy kafolatlar mavjud emas. Ushbu qonun loyihasi bilan davlat xizmatchisi nufuzli xorijiy taʼlim muassasasiga magistratura yoki doktoranturaga oʻqish boʻyicha grant yutganda, ish beruvchining yozma roziligi asosida uning ish oʻrni (lavozimi) saqlanishi taklif etilmoqda.

Hujjatda davlat fuqarolik xizmatlashining xorijda oʻqish davri uning mehnat stajiga qoʻshib hisoblanishi, koʻp yillik xizmati uchun har oylik ustama belgilashda inobatga olinishi ham nazarda tutilyapti.

Munozaralar davomida fraksiya aʼzosi Vasilas Fayziyeva qonun loyihasi yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini bildirib, bu oʻzgarishlar davlat fuqarolik xizmatchilarini yanada qoʻllab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, davlat organlari va tashkilotlarida professional hamda salohiyatli kadrlar qatlamini shakllantirishga xizmat qilishini taʼkidladi.

Fraksiya aʼzolari qonun loyihasini qoʻllab-quvvatladi.

Inson huquqlarini himoya qilish choralari kuchaytiriladi

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida davlatimiz rahbarining shu yil 5-maydagi

"Sogʻliqni saqlash tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmonning mazmun-mohiyati haqida soʻz yuritildi.

Deputatlar ushbu farmon mamlakatimizda amalga oshirilayotgan xalqchil siyosatning yana bir yorqin namunasi hamda tibbiyot sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim hujjat boʻlganini alohida qayd etdi.

Mazkur hujjatning mazmun-mohiyatini hududlardagi ijrochilarga yetkazish, joylarda aholini qiynayotgan muammolarni tizimli hal etishga alohida eʼtibor qaratish, farmon ijrosi ustidan parlament nazoratini olib borish lozimligi taʼkidlandi.

Fraksiya aʼzolari bir guruh deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan – Oliy Majlisning Inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman) faoliyatini yanada

tartibga solishga qaratilgan. Xususan, qonun loyihasida Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar harbiy xizmatchilarining huquqiy maqomi, huquq hamda majburiyatlari, javobgarligi, shuningdek ular va oila aʼzolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilishning aniq mexanizmlari belgilab berilmoqda.

Fraksiya aʼzolari qonun loyihasida harbiy xizmatchilarni moddiy taʼminlash, sifatli tibbiy xizmat koʻrsatish, uy-joy bilan taʼminlash, majburiy davlat sugʻurtasi, pensiya taʼminoti, xizmat vazifasini bajarish chogʻida jarohat olgan yoki halok boʻlgan taqdirda kompensatsiya toʻlovlari amalga oshirish kabi muhim kafolatlar qonun darajasida mustahkamlanayotganini alohida eʼtirof etdi.

Qonun tashabbuskorlarining maʼlum qilishicha, muqobil xizmat alohida huquqiy tartibga ega boʻlib, u amaldagi qonunchilikda mustaqil ravishda tartibga solingan. Shu bois mazkur toifa bu qonun loyihasi doirasiga kiritilmagan.

Deputatlar "Safarbarlik tayyorgarligi va safarbarlik toʻgʻrisida"gi qonun loyihasini ham koʻrib chiqdi.

Fraksiya aʼzosi Jamol Achilov qonun loyihasining ahamiyati yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini bildirib, ushbu hujjat safarbarlik sohasidagi munosabatlarni yagona va mukammal huquqiy asosda tartibga solishga xizmat qilishini taʼkidladi.

Yigʻilishda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Bolalar ombudsmani faoliyati samaradorligi oshirilmoqda

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida bir guruh deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan – Bola huquqlari boʻyicha vakil (Bolalar ombudsmani) faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan qonun loyihasi obdan muhokama qilindi. Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bolaga qarshi jinoyatlar toʻgʻrisida maʼlumotlar olgan taqdirda jinoyat ishini qoʻzgʻatish yoki uni rad etish toʻgʻrisida qaror qabul qilganda, bu haqda Bolalar ombudsmanini xabardor qilishi nazarda tutilyapti.

– Qonun loyihasining qabul qilinishi bolalar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirishga, Bolalar ombudsmani faoliyati samaradorligini oshirishga hamda mazkur institutning huquqiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi, – deydi fraksiya aʼzosi Navroʻz Yusupov.

Muhokamalardan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

"Xalq soʻzi".

Diyen KEYTA:

OʻZBEKISTON GENDER TENGLIKNI TAʼMINLASHDA SEZILARLI YUTUQLARGA ERISHDI

Buxoroda boʻlib oʻtadigan Osiyo xotin-qizlari II forumida ishtirok etish uchun Oʻzbekistonga tashrif buyurgan BMT Bosh kotibi oʻrinbosari, BMT Aholishunoslik jamgʻarmasi (UNFPA) ijrochi direktori Diyen Keyta "Dunyo" axborot agentligi muxbiri savollariga javob berdi.

Dunyo nigohi

– Oʻzbekistonda gender tenglik va xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikka qarshi kurashish masalalariga katta eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada erishilgan natijalarni qanday baholaysiz?

– Oʻzbekiston gender tenglikni taʼminlash va xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlikka qarshi kurashish tizimini mustahkamlashda sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu masalalarga butunligi kunda nafaqat ijtimoiy muammo, balki barqaror rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy himoya va milliy taraqqiyotning asosiy elementi sifatida qaralishi, ayniqsa, dolzarb.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston Ijtimoiy himoya milliy agentligi rahbarligida ijtimoiy, huquqiy, psixologik, tibbiy va himoya xizmatlarini birlashtirgan, muvofiqlashtirilgan hamda jabrlanuvchilar manfaatlariga yoʻnaltirilgan tizim shakllantirilmoqda.

UNFPA mamlakatda qayta yoʻnaltirish mexanizmlarini takomillashtirish, javob berishning standart tartib-qoidalarini joriy etish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish hamda oldingi safda ishlayotgan mutaxassislarining malakasini oshirish boʻyicha saʼy-harakatlarni qoʻllab-

quvvatlaydi va yuqori baholaydi. Inklyuzivlikka eʼtibor ortib borayotgani, xususan, nogironlari boʻlgan ayollar hamda qizlarning himoya va qoʻllab-quvvatlash xizmatlaridan toʻliqsiz foydalanishini taʼminlash yoʻnalishidagi ishlar ham olqishlanadi.

Yana bir muhim yoʻnalish – profilaktika. Oʻzbekistonda zoʻravonlikka barham berish uchun zararli ijtimoiy meʼyorlar va stereotiplarni oʻzgartirish zarurigi tobora kengroq anglab yetilmoqda.

Birgalikdagi ishlar doirasida mahallalar, yoshlar, erkaklar va oʻgʻil bolalar, diniy yetakchilar, parlament aʼzolari hamda fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish yanada kuchaytirilmoqda. Bu juda muhim, chunki ayollarga nisbatan zoʻravonlik faqat individual xatti-harakatlar bilan emas, balki hokimiyatning noteng munosabatlari va kamsituvchi ijtimoiy qarashlar bilan ham bogʻliq boʻlib, ularni birgalikda bartaraf etish zarur.

– Buxoroda Osiyo xotin-qizlari II forumida ishtirok etasiz.

Ularning huquq va imkoniyatlarini ilgari surishda ushbu forumning ahamiyatini qanday baholaysiz va bu borada qanaqa amaliy natijalarga erishish mumkin?

– Buxoroda oʻtkazilayotgan Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi shunchaki mintaqaviy tadbir emas. Bu kelajakdagi ayollar yetakchiligi shakllantirish, Osiyo va undan tashqarida ayollarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim xalqaro maydondir.

Tadbir asta-sekin ayollar huquqlari va inklyuziv rivojlanish masalalari boʻyicha doimiy hamkorlik platformasiga aylanib borayotgani bu sohada taraqqiyotni jadallashtirish uchun tajriba va gʻoyalarni almashish muhimligini koʻrsatadi.

Forum gʻoyasi muhim davrda oʻtmoqda. Bugungi kunda Osiyo mamlakatlari keng koʻlamli demografik, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy oʻzgarishlarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda ayollar va qizlarga sarmoya kiritish – rivojlanish, jamiyatlar barqarorligi va tinchlikka eng samarali samoyalardan biridir.

Men forumni muloqot aniq harakatlarga aylana oladigan makon deb bilaman. U siyosiy yetakchilar, parlament aʼzolari, ekspertlar, xalqaro hamkorlar, fuqarolik jamiyati vakillari, yoshlar va yetakchi ayollarni bilim hamda tajriba almashish, hamkorlikni shakllantirish va amaliy majburiyatlarni ilgari surish uchun birlashtiradi.

UNFPA uchun ushbu tadbir alohida ahamiyatga ega. Chunki biz demografik jarayonlar, sogʻliqni saqlash va gender

tenglik oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik masalalarida global tajribaga egamiz. Biz mamlakatlarga maʼlumotlarga asoslangan siyosatni ishlab chiqishda va ayollar hamda yoshlarning imkoniyatlarini kengaytiruvchi tizimlarni mustahkamlashda yordam beramiz. Forumda ushbu ustuvor yoʻnalishlarni odamlar hayotini yaxshilaydigan amaliy yechimlarga aylantirish boʻyicha muhokamalarda ishtirok etmoqdamiz.

Xotin-qizlarga sarmoya kiritish har qanday davlat qilishi mumkin boʻlgan eng oqilona ish. Ayollar huquqlari va tanlovi rivojlanish siyosatining markaziy elementiga aylansa, jamiyatlar yanada barqaror hamda farovon boʻladi.

Shuningdek, men forumning yangi dolzarb masalalarga eʼtibor qaratayotganini olqishlayman. Jumladan, ayollarning innovatsiyalar, texnologiyalar va sunʼiy intellekt sohasidagi ishtiroki, shu bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali ayollar va qizlarga nisbatan zoʻravonlik holatlarining ortib borayotgani muhim mavzu sifatida koʻtarilmoqda. Jamiyatlarimiz tobora raqamlashib borayotgan bir paytda ayollar va qizlarning internetdagi huquqlari hamda xavfsizligini taʼminlash ustuvor vazifalardan biri boʻlishi kerak.

Umid qilamanki, tadbirning amaliy natijalari mintaqaviy sheriklikni mustahkamlash, yangi siyosiy majburiyatlarni qabul qilish, ayollar va qizlarga investitsiyalarni koʻpaytirish, aniq qoʻshma tashabbuslarni ishga tushirishdan iborat boʻladi.

Forum yakunlari boʻyicha qabul qilinadigan Buxoro deklaratsiyasi gender tenglik faqat tor sohaviy masala emas, balki milliy taraqqiyot, inson kapitali va jamiyat barqarorligining muhim strategik omili ekanini yaqqol koʻrsatadi.

UNFPA Oʻzbekiston hukumati va hamkorlari bilan birgalikda ushbu muhim forumning hammualifli ekanidan faxrlanadi hamda mamlakatning bunday ulkan va kelajakka yoʻnaltirilgan mintaqaviy va xalqaro muloqotni yaratish borasidagi saʼy-harakatlarini yuqori baholaydi.

– Oʻzbekistonga tashrifingiz UNFPA bilan hamkorlik faol rivojlanib borayotgan sharoitga toʻgʻri kelmoqda. Ushbu tashrifdan qanday natijalar kutayapsiz va kelajakda hamkorlikning yana qanaqa yoʻnalishlarini rivojlantirish mumkin?

– Mamlakatingizda tashrifim Oʻzbekiston va UNFPA oʻrtasidagi hamkorlik nafaqat koʻlami, balki strategik maqsadlar darajasida ham jadali rivojlanayotgan muhim bir davrga toʻgʻri kelmoqda. Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni qoʻllab-quvvatlayman va hamkorligimizni yanada mustahkamlashga harakat qilaman.

UNFPA Oʻzbekistonda 1993-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda va bu yil oʻzining oltinchi mamlakat dasturini ishga tushirdi. Ushbu dastur yuqori maqsadlari, inson kapitaliga yoʻnaltirilgan investitsiyalari va mamlakatning milliy ustuvor yoʻnalishlari bilan toʻliq uygʻunligi bilan ajralib turadi.

"Dunyo" AA.

Markaziy bank maʼlumotlariga koʻra, shu yil aprel oyi yakunida mamlakatimiz oltin-valyuta zaxiralari qariyb 1,9 milliard dollarga koʻpayib, jami 70 milliard 891,9 million dollarni tashkil etgan.

“Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasi:

NAVQIRON AVLOD ORZU-MAQSDALARINI
RO‘YOBGA CHIQARUVCHI DASTURILAMAL HUJJAT

Bandlik va tadbirkorlik – oldimizda turgan eng muhim yo‘nalishlardan biri. 100 mingdan ortiq yigit-qizlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilganda ularning 25 foizdan ko‘prog‘i o‘z biznesini boshlamoqchi ekanini bildirgan. Har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarga ish o‘rni yaratish – strategik vazifa. Biroq buni faqat bitta tashkilot, deylik, Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga yuklab bo‘lmaydi. Shu bois davlatimiz rahbari har bir vazirlik va idorani shu maqsadga yo‘naltirish hamda kun tartibiga olib chiqishni belgilab berdi.

Strategiyada har yili 600 ming nafar yoshni ish bilan ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Buning uchun bir nechta mexanizm bir vaqtning o‘zida ishga tushiriladi. Tadbirkorlik esa doimgidek markaziy o‘rinni egallaydi. “Yangi avlod tadbirkorlari” dasturi orqali 20 ming yoshni Harvard, Stenford, MIT va London biznes maktabi kabi muassasalar bilan hamkorlikda o‘qitish rejalashtirilgan. Mingta biznes loyihasi saralab olinadi va ularga uch yilgacha muddatga bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravarigacha ssuda ajratiladi. Yosh tadbirkorlar uchun muhandislik tarmoqlariga ulanish xarajatlarining bir qismi qoplab beriladi.

Yaqinda Amerika Qo‘shma Shtatlariga safarimiz davomida olib borilgan muzokaralarda Harvard biznes maktabi, Yel, Kornell, Uorton, Stenford universitetlari, Massachusets texnologiya instituti, yetakchi markazlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. “Yangi avlod tadbirkorlari” dasturi orqali yosh asoschilarni shu ekotizimlarga olib kirish, ularni global bozor talablari asosida tayyorlash va amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash ko‘zda tutilmoqda.

Yana bir e‘tiborli jihati, olis va chekka hududlarda o‘quv markazlarini tashkil etishga 300 million so‘mgacha ssuda ajratiladi. Mazkur markazlar uchun ijtimoiy soliq hamda o‘qituvchilar daromad solig‘i 1 foiz qilib belgilanadi. Elektron platformalar orqali bandlikni monitoring qilish tizimi ham joriy etilib, yoshlarning qayerda ishlayotgani, qaysi yo‘nalishda faol ekanini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Global raqobat yo‘li:
bilim, til va tajriba

Oxirgi yillarda Prezidentimiz yoshlarga zamonaviy, dunyo mehnat bozorida talabgir kasblarni



ham qayta ko‘rib chiqiladi. Kasbiy sertifikatlash, zamonaviy kasblar bo‘yicha tayyorlash, xalqaro dasturlar orqali tajriba o‘rtirish imkoniyatlari kengaytiriladi. Ayni uzviylikda ularga chet tilni bilish darajasi yuzasidan berilgan rag‘batlar ham bejiz emas. “B2” darajaga chiqqan yosh uchun xorijiy pasport rasmiylashtirishdagi yengillik uning keyingi harakatiga yo‘l ochadi. “C1” darajaga ega bo‘lgan yoki tashabbus bilan chiqayotgan yoshlar uchun esa davlat xizmatlari to‘lovlari kamaytiriladi.

Aholi soni o‘sishi davom etayotgan bir vaziyatda biz uchun migratsiyani diversifikatsiya qilish juda muhim. Yoshlarga til o‘rgatib, ularni zamonaviy, salohiyatli, bilimli etib tarbiyalash, xorijiy davlatlarga mutaxassis, menejer, biznes egasi sifatida transfer qilish haqida o‘ylanmoqda. Yaqinda delegatsiyamiz bilan Kremniy vodiysida bo‘lganimizda u yerda 5 mingga yaqin o‘zbekistonliklar



borligini ko‘rdik. O‘zbekiston haqiqiy yetakchi mutaxassislarni yetishtirib berish salohiyatiga ega. Biz esa shunga yo‘nalish berishimiz va qo‘llab-quvvatlashimiz zarur deb o‘ylayman.

Har yili shakllanayotgan yangi oilalar jamiyatda yangi ehtiyojlar

qatlarni yaratadi. Yangi oila uchun uy-joy, doimiy daromad, barqaror muhit kerak. Agar shular qondirilmasa, boshqa yo‘nalishlarda erishilgan natijalar mustahkam bo‘lmaydi. Chunki har bir oila jamiyatning bir tayanchi, uni boshdanoq mustahkamlash lozim. Shu sababdan har yili kamida 10 mingta yosh oila ipoteka orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Kreditning Markaziy bank stavkasidan yuqori qismi qoplab berilishi orqali moliyaviy yuk kamaytiriladi.

“Bandlik va tadbirkorlik – oldimizda turgan eng muhim yo‘nalishlardan biri. 100 mingdan ortiq yigit-qizlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilganda ularning 25 foizdan ko‘prog‘i o‘z biznesini boshlamoqchi ekanini bildirgan. Har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarga ish o‘rni yaratish – strategik vazifa.”

Tizim faollikni
rag‘batlantiradi

Yana bir muhim yo‘nalish – ko‘ngillilar, ya‘ni volontyorlik harakati. Strategiyada ijtimoiy faollik masalasi aniq ko‘rsatkichlar bilan berilgan. Hozir ro‘yxatdan o‘tgan volontyorlarimiz

yoshlarning faolligi faqat ijtimoiy yoki iqtisodiy yo‘nalish bilan cheklab qo‘yilmaydi, madaniy qatlama rag‘bat, aholining ma‘naviy ehtiyojini qondirish yo‘lidagi tashabbuslar ham kuchaytiriladi.

Respublika miqyosida “O‘zbekiston yoshlari sevadi!” loyihasi, “Hayot fest”, “Talaba fest”, “Talaba Expo – 2026” kabi tadbirlar o‘tkaziladi. Robototexnika assotsiatsiyasining faoliyati qo‘llab-quvvatlanadi. Bu yerda asosiy e‘tibor sonni ko‘paytirishga emas, muhitni shakllantirishga qaratilgan.

Sog‘lom avlod –
barqaror kelajak

Raqamli dunyoning rivojlanishi, texnologiyalar inqilobi, jamiyatda yangi avlodning shakllanishi jarayonida yoshlarning mental, psixologik salomatligi masalasi juda dolzarb. So‘nggi yillarda mazkur yo‘nalishda yig‘ilib qolgan muammolarni kechiktirmasdan hal qilish zarurati paydo bo‘ldi. Strategiyada ruhiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar ulushini 40 foizga kamaytirish vazifasi qo‘yilgan. Shu bilan birga, tunu kun ishlaydigan psixologik aloqa markazini tashkil etish rejalashtirilgan. Psixologik xizmatlarni kuchaytirish masalasi ta‘lim va ijtimoiy muhit bilan bog‘lanadi. O‘qish, ish, oilaviy sharoit yoshlarning ruhiy holatiga bevosita ta‘sir qiladi.

Yana bir muhim yo‘nalish jismoniy faollikni kuchaytirishdan iborat. Sport bilan shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini

25 foizga oshirish ko‘zda tutilgan. Bu ko‘rsatkich infratuzilma, sharoit va qiziqish bilan bog‘liq.

Strategiyada yoshlar bilan muloqot masalasi aniq mexanizmlar orqali yo‘lga qo‘yiladi. Bunday muloqotlar bizda allaqachon bor edi. Endigi vazifa – uni yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan muntazam ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazilib, navqiron avlod ehtiyoji, kutilma va real muammolar aniqlanadi. Shu ma‘lumotlar asosida Milliy yoshlar indeksi shakllantiriladi.

Murojaatlar bilan ishlash ham ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Yoshlarning murojaatlari faqat qabul qilinmaydi, balki tahlil etiladi va qarorlar qabul qilish jarayoniga ulanadi. Har payshanba yoshlar bilan muloqotlar o‘tkazilishi belgilangan.

Raqamli platformalar orqali ham muloqotni kuchaytirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bandlik, ta‘lim, faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ma‘lumotlar yig‘iladi va yangilanadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, muloqot doimiy jarayon sifatida shakllanib, qarorlarni real holatga tayangan holda qabul qilish imkoni yaratiladi.

Strategiyada 100 ming yoshning global xalqaro dasturlarda ishtirokini ta‘minlash vazifasi qo‘yilgan. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ham kengaytiriladi.

2026-2027-yillarga mo‘ljallangan 7 ta yo‘nalish va 56 ta loyiha strategiyaning qanchalik aniq bosqichga o‘tganini ko‘rsatadi. Umumiy maqsadlar alohida vazifalarga ajratilgan, muddat va natija mezonlari bilan mustahkamlangan. Ta‘lim, bandlik, tadbirkorlik va ijtimoiy soha bir vaqtning o‘zida harakatga keladi, ularning uyg‘unligi natijaning sifatini belgilaydi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha mas‘ullar belgilangan, baholash aniq vazifalar kesimida olib boriladi.

“Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasini e‘lon qilishda davlatimiz rahbari bir muhim omilga to‘xtalib o‘tdi. Mazkur hujjat amaliyotda ishlashi uchun biz yoshlar bilan faol muloqotni davom ettirishimiz zarur, dedi. Shundagina u yoshlarimizning orzu-maqsadlarini ro‘yobga chiqaruvchi dasturilamal hujjatga aylanadi.

Alisher SA‘DULLAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi
direktori, senator.

Taklif

MO‘MAY DAROMADMI
YOKI MA‘NAVIY BOYLIK?

Kitob – bebaho boylik, ta‘bir joiz bo‘lsa, dunyoning sakkizinchi mo‘jizasi. Bashariyatning buyuk kashfiyoti hisoblangan uning o‘rmini hech narsa bosolmaydi. Chunki kitob o‘qigan inson ma‘naviyatli, teran fikrli, eng muhimi, halol va pok inson bo‘lib kamol topadi.



Kun sayin rivojlanib borayotgan yurtimizda kitobxonlik madaniyati targ‘iboti odamlar orasida, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida bir qadar oqsayotgandek, nazarimda. To‘g‘ri, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Davlat byudjeti hisobidan “Mutolaa” platformasi tashkil qilinib, o‘zbek va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari elektron shaklda bir joyda jamlanganini e‘tirof etish joiz. Bu platforma kitobxon yoshlar safini minglarcha ko‘paytirgani ham rost. Biroq shugina yetarlmi, xotirjamlik uchun kafolat bo‘la oladimi, degan savollar ham yo‘q emas.

Prezidentimizning 2026-yil 15-yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori barcha kitobxon yurtdoshlarimizni quvontirdi. Ammo...

Hozirgi Nurafshon shahrining To‘ytempa mahallasida joylashgan O‘rta Chirchiq tumani markazlashgan kutubxonalar tizimi idorasi kutubxona tugatilgach, uzoq yillar dorixona omborxonasi vazifasini o‘tadi. Endilikda esa qaysi bir tadbirkor bu sobiq ziyo maskani o‘rnida eshik va deraza romini tayyorlaydigan fabrikaga asos solayotgan emish...

Ko‘pchilik yaxshi eslasa kerak, atoqli olim va jamoat arbobi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Aziz Qayumov vafotidan atigi bir hafta ilgari o‘sha vaqtdagi Toshkent shahri hokimiga ochiq xat yozib, uni matbuotda e‘lon qilgandi. Unda Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining bir qismi xususiy tadbirkoraga berib yuborilgani, binoning aynan shu qismida tarixiy devoriy suratlar va eksponatlar saqlanishi, bu ish mo‘may daromad keltirsa-da, milliy ma‘naviyatga jiddiy zarar yetkazishi haqida yozilgan edi. O‘z ishidagi kamchilikni uqgan hokim Adabiyot muzeyining binosini to‘liq madaniyat muassasasi ixtiyoriga qaytargandi.

Bugun oramizda jonkuyar olim yo‘q, ammo Adabiyot muzeyi to‘liq faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu ma‘noda aytmoqchimizki, Nurafshon shahrining To‘ytempa mahallasida joylashgan va bir necha o‘n yillar tuman markaziy kutubxonasi vazifasini bajargan bino yangi ishlab chiqarish obyektiga emas, yana madaniyat dargohiga aylansa!.. Ya‘ni bino qayta ta‘mirlanib, uning mutolaa xonalari yangi jihozlar bilan ta‘minlansa, kutubxona binosining o‘zi esa madaniy meros obyekti sifatida e‘tirof etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Ko‘hna kutubxona jozibasi ko‘plab yoshlarni o‘ziga jalb qilib, ularni kitob mutolaasiga undashiga ishonamiz.

Otabek ISROILOV
(“Xalq so‘zi”).

Shifokorlarning eng yaqin ko‘makchisi

Poytaxtimizda 12-may – Xalqaro hamshiralar kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi. Unda soha fidoyilari tabriklanib, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tizimda olib borilayotgan islohotlarga urg‘u qaratildi.

Tibbiyot



Ta‘kidlanganidek, bugungi o‘zbek hamshirasi nafaqat bemorlarni parvarish qiluvchi, balki yuqori texnologik amaliyotlar, jumladan, buyrak va jigar ko‘chirib o‘tkazish kabi murakkab operatsiyalarda shifokorlarning eng yaqin ko‘makchisiga aylanadi.

Ayniqsa, mamlakatimizning 15 ta tuman va shahrida hamda Samarqand viloyatida amaliyotda tadbir etilayotgan sog‘liqni saqlash tizimining yangi modeli o‘rta tibbiyot xodimlari uchun yangi davrni boshlab berdi. Mazkur jarayonda soha xodimlarining maoshi va ustamalari sezilarli darajada oshirilib, ularga o‘z salohiyatini

yuzaga chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning tibbiyot muassasalarida 400 mingga yaqin o‘rta tibbiyot xodimlari va qariyb 7 ming nafar oliy ma‘lumotli hamshiralar faoliyat yuritmoqda. Sohani yanada xalqchil tizimga aylantirish va hamshiralarning jamiyatdagi o‘rmini yuksaltirish maqsadida qator yangi loyiha va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, joriy yildan boshlab sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida ilk bor “Sog‘liqni saqlash tizimi birlamchi bo‘g‘ini bo‘yicha yilning eng yaxshi IT-operator hamshirasi” ko‘rik-tanlovining yo‘lga qo‘yilgani ham sohadagi zamonaviy yondashuvlardan ibiridir.

Tadбир doirasida an‘anaviy “Hamshira – 2026”, “Patronaj doya – ayol salomatligi tayanchi”, “Yilning eng yaxshi o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimi”, “Mening onam hamshira” kabi ko‘rik-tanlovlar g‘oliblari tantanali ravishda taqdirlandi.

G‘oliblarga tashkilotchilar tomonidan qimmatbaho sovg‘a hamda diplomlar topshirildi.

Diyora YUSUPALIYEVA,
O‘ZDJTU talabasi.

TARIXIY UCHRASHUV MANZILI

Surxondaryolik arxeolog olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida buyuk sarkarda Amir Temurning ulug‘ ulamolardan biri Sayyid Barakadan oliy hokimiyat ramzi sanalgan tabl, ya‘ni katta nog‘ora hamda yalov, bayroqni qabul qilib olgan tarixiy joy aniqlandi. Ushbu topilma nafaqat bir voqeaning geografik manzilini belgilab beradi, balki temuriylar davri siyosiy ramzlari va marosimlarini yanada chuqurroq anglash imkonini ham yaratadi.

Tadqiq

Akademik Bo‘riboy Ahmedov qayd etganidek, 1370-yilning bahorida Amir Temur o‘z raqibi Amir Husaynga qarshi Balx tomon yurish boshlaydi. Bir necha kundan so‘ng qo‘shin Termiz atroflariga yetib keladi. Ana shu paytda Termizdan uch farsax, taxminan 18 – 21 kilometr masofada joylashgan Biyo qishlog‘ida Andxud sayyidzodalardan bo‘lgan Sayyid Baraka Amir Temurga peshovz chiqadi. U Sohıbbıroqnga tabl va yalovni topshiradi. Islomiy an‘analarda



nog‘ora va bayroq hukmronlik, toj va taxt ramzi sifatida qabul qilingani bois bu marosim Amir Temurning yaqin orada davlat boshlig‘iga aylanishini anglatuvchi muhim ishora sifatida talqin etiladi. Mazkur tarixiy uchrashuv

aynan qayerda bo‘lgani uzoq yillar davomida olimlar o‘rtasida bahs mavzusi bo‘lib kelgan edi. Tarix fanlari doktori, professor Shopo‘lat Saydullaev rahbarligidagi ekspeditsiya izlanishlari bu masalaga oydinlik kiritdi. Tadqiqotlar natijasida Surxondaryo viloyatining Angor tumani hududida joylashgan

manzil tarixiy manbalarda keltirilgan ma‘lumotlarga to‘la mos kelishi aniqlandi.

– Manbalar tahlili bu xulosani yanada mustahkamlamoqda, – deydi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Anvar Boqiyev. – Muiniddin Natarziyning

XV asr boshlarida yozilgan “Muntaxab at-tavorixi Muiniy” asarida mazkur voqea bayon etilgan. Undan avval yozilgan Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sida uchrashuv Biyo qishlog‘ida bo‘lgani aytilsa-da, aniq manzil ko‘rsatilmagan. Keyinchalik Sharofiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida bu joy Termizdan uch farsax masofada ekanini ta‘kidlaydi. Tadqiqotlarda “Temur tuzuklari”da keltirilgan jangoh tanlash mezonlariga ham murojaat qildik. Unga ko‘ra, jang maydoni suvga yaqin, atrofida balandlik mavjud, quyosh tik tushmaydigan va dushmanga nisbatan ustun nuqtada joylashgan bo‘lishi kerak. Angor tumanidagi hozirgi Qorabog‘ mahallasi hududida joylashgan Bag‘dod vali qabristoni atrofida tepalik aynan shu talablarga javob berishi bilan ajralib turadi. Bu joyning Termizdan uch farsax masofada joylashgani ham

manbalardagi ma‘lumotlar bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Hududning geografik xususiyatlari ham alohida ahamiyatga ega. Yodgorlikning janubiy qismi Amudaryo bilan chegaradosh bo‘lib, daryogacha masofa taxminan 5-6 kilometrni tashkil etadi. Sharqiy tomon esa keng dala hududlariga tutashib ketgan. Atrofdan topilgan sopol buyumlar siniqlarining dastlabki qiyosiy tahlili ularning temuriylar davriga mansubligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur ilmiy izlanish tarixiy manbalarda aytilgan voqealarning aniq geografiasini belgilash bilan birga, Amir Temur davlatchiligi shakllanishining muhim bosqichlarini yanada yorinroq tasavvur qilish imkonini beradi. Bu esa yurtimiz tarixini chuqurroq o‘rganish va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Farhod ESONOV
(“Xalq so‘zi”).

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi oliy ma‘lumoti bo‘lmagan, biroq mutaxassislgi bo‘yicha kamida 5 yillik ish stajiga ega xotin-qizlarga davlat OTMga kirish uchun tavsiyanoma berishni boshladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma‘lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e‘lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mulfiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhish S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni – 00.30 Topshirildi – 00.40

1 2 3 4 5 6